



ASALARICHILIKDA SELEKTSIYA ISHLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10730268>

Jamolov Rapiqjon Qo'shmatovich

Farg'ona davlat universiteti-o'qituvchi

Azizov Rahmatillo Olimjon o'g'li

talaba

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asalarichilikda selektsiya ishlari qishloq xo'jalik hayvonlarida qo'llaniladigan barcha umumiy zootexnikaviy qoidalaridan foydalaniladi. Seleksiya lotincha Selectio – tanlov so'zidan olingan bo'lib yangi zot hayvon va o'simliklarni yaratishdan iborat. Asalarichilikda selektsiya ishlari faqatgina yaqinda ramkali arixonalar ixtiro qilingandan keyin tadbqiq etila boshlandi. Asalarichilikda selektsiya ishlari ona va erkak asalari yetishtirish bilan uzviy bog'liqdir. Urug'langan ona asalari – bu oilada barcha irsiy belgilarni olib yuruvchi va tarqatuvchi individdir. Seleksiya asalari oilasining mahsuldorligini oshirishda iqtisodiy jixatdan eng samarali usul hisoblanib, olingan natijalarni ishlab– chiqarishda tadbqiq etish boshqa sarf–xarajatlardan bir necha barobar kamligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Seleksiya, mahsuldorlik, chatishtirish, genetik, zot, urug'langan, poliandriya, geterozis, irsiy, avlod, bahor – yoz, erkak asalari, ona asalari, mahalliy zot, sifatsiz.

СЕЛЕКЦИОННАЯ РАБОТА В ПЧЕЛОВОДСТВЕ.

Джамолов Рапикжон Кошматович

Ферганский государственный университет, преподаватель

Сын Азизова Рахматилло Олимджона

студент

АННОТАЦИЯ

В данной статье использованы все общие зоотехнические правила разведения в пчеловодстве, применяемые к сельскохозяйственным животным.

Селекция происходит от латинского Selectio, что означает отбор, и заключается в создании новых пород животных и растений. Селекционная работа в пчеловодстве стала применяться лишь в последнее время, после



изобретения рамочных пасек. Селекционная работа в пчеловодстве неразрывно связана с разведением пчелиных маток и самцов.

Оплодотворенная пчелиная матка-это средство, которое несет и распространяет все генетические признаки в семье. Разведение является наиболее эффективным способом повышения продуктивности пчелиной семьи с экономической точки зрения, поскольку сообщается, что применение полученных результатов в производстве в несколько раз меньше других затрат.

Ключевые слова

Селекция, продуктивность, скрещивание, генетическое, породное, оплодотворенное, полиандрия, гетерозис, наследственное, потомство, весна-лето, пчелы-самцы, пчелиные матки, местная порода, низкое качество.

SELECTION WORKS IN BEEKEEPING.

Jamolov Rapikjon Koshmatovich

Fergana State University, teacher

Azizov Rahmatillo Olimjon's son

is a student

ABSTRACT

This article uses all the general zootechnical rules of breeding in beekeeping that are used in farm animals. Selection is derived from the Latin *Selectio*, which means selection, and consists in creating new breeds of animals and plants. Selection works in beekeeping began to be applied only recently after the invention of frame apiaries. Breeding work in beekeeping is inextricably linked with breeding of queen and male bees. The fertilized queen bee is the vehicle that carries and spreads all the genetic traits in the family. Breeding is the most effective way to increase the productivity of the bee family from the economic point of view, because it is reported that the application of the obtained results in production is several times less than other expenses.

Key words

Selection, productivity, crossbreeding, genetic, breed, fertilized, polyandry, heterosis, hereditary, progeny, spring-summer, male bees, queen bees, local breed, poor quality.

Kirish: Asalarichilikda selektsiya ishlari qishloq xo'jalik hayvonlarida qo'llaniladigan barcha umumiy zootexnikaviy qoidalaridan foydalaniladi. Lekin ularda qator biologik farq borki, ularni hisobga olish talab etiladi.



Selektsiya - bu lotincha Selectio-tanlov, soʻzidan olingan boʻlib yangi zot hayvon va oʻsimliklarni yaratishdan iborat. Asalarichilikda selektsiya ishlari faqatgina yaqinda ramkali arixonalar ixtiro qilingandan keyin tadbiiq etila boshlandi.

Asalarichilikda selektsiya ishlari ona va erkak asalari yetishtirish bilan uzviy bogʻliqdir. Urugʻlangan ona asalari - bu oilada barcha irsiy belgilarni olib yuruvchi va tarqatuvchi vositadir. Muvaffaqiyatli tarzda ona asalari yetishtirish bu asalari oilasini sifatiga va mahsuldor boʻlishi garovidir. Seleksiya asalari oilasining mahsuldorligini oshirishda iqtisodiy jixatdan eng samarali usuldir, chunki olingan natijalarni ishlab-chiqarishda tadbiiq etish boshqa sarf-xarajatlardan bir necha barobar kamdir.

Asalari oilasida selektsiya ishida ishtirok etadigan jinsiy jihatdan yetilgan, ona va erkak asalarilardan tashqari, ulardan keskin farq qiladigan jinsiy jihatdan koʻpaymaydigan urgʻochi ishchi asalarilar bor. Ishchi asalari oilada barcha vazifalarni bajaradi va oilaning asosini tashkil etadi, shuningdek oilada asosiy koʻrsatgich boʻlgan asal va mum hosilini yetishtiradi. Chorvachilikda esa aksincha, selektsiya qilinadigan zotning oʻzi mahsulot yetishtiradi va shular asosida zotning mahsuldorligi hisobga olinadi. Asalarichilikda esa aksincha, selektsiya ishida ishtirok etmaydigan, asalarichilikda tanlov boshqa zotlarga olib borilsa ham, lekin boshqa butunlay boshqa zotlar koʻpaytiriladi. Asalari selektsiyasi ishida ishchi asalari mahsuldorligi hisobga olinadi, lekin oilada mahsulot yetishtirishga ishtirok etmaydigan zotlar ona va erkak asalarilar koʻpaytiriladi. Har bitta asalari oilasi oʻzining zotlari bilan ishchi, ona va erkak asalarilari bilan bir butun bir-biridan farq qiladigan biologik murakkab tizimni tashkil etadi. Asalari oilasida faqatgina asalarini almashtirgan taqdirda oiladagi muxitni, yaʼni 1,5-2 oydan soʻng yangi ona asalari genotipga mos boʻlgan boshqa barcha yangi zotlar almashinadi.

Asalarilarga hos boʻlgan ayrim zotlarning rivojlanishi va oilada ishchi asalari zotlarini koʻpayishidan tashqari, ular yana ikkinchi tur koʻpayish boʻlgan, koʻch ajratib - yangi qizlik oilani tashkil etish bilan xarakterlanadi.

Asalari oilasida poliandriya_xususiyatlari shakllangan, yaʼni oiladagi ona asalari 10-12 ta erkak asalari bilan juftlashib, ularning spermalarini oʻziga saqlab qoladi. Bunday holni birinchi boʻlib V. Tryasko (1955) aniqlab bergan.

Oddiy normal asalari oilasida urugʻlangan tuxumlarni faqatgina ona asalari qoʻyadi. Uning organizmida urugʻlanmagan tuxum xujayralari paydo boʻladi, bu tuxumlar genetik jihatdan bir xil boʻlib, lekin ular ona asalari urugʻdonida saqlanadigan koʻp xildagi erkak asalarilar spermatozoidlari bilan urugʻlanadi. Shu sababali ona asalarilar genetik jihatdan bir xil boʻlgan avlod berolmaydi. Ona asalarini erkak asalari bilan juftlashishini nazorat qilib boʻlmasligi uchun asalarilarni otalik liniyasi tomonidan kelib chiqishini aniqlash juda qiyin.



Tadqiqot metodologiyasi: Odatda ona asalari toza havoda juda balandda erkak asalarilar bilan juftlashadi, shuning uchun ham uyasida, o'z avlodi bilan juftlasholmaydi. Bu bilan u ma'lum miqdorda o'z avlodi bilan chatishishdan cheklanadi va oilada naslni yaxshilanishiga olib keladi.

Ona asalari uyasidan urug'lanishga chiqqanida juda uzoqdagi boshqa avloddagi erkak asalarilar bilan uchrashadi, asalarizor atrofida erkak asalarilar bo'lmagan taqdirda, hatto 10–16 km uzoqlikda joylashgan erkak asalarilar bilan ham uchrashib urug'langanlik to'g'risida ma'lumotlar bor.

Asalari oilasi mahsuldorligiga ko'pgina omillar, ya'ni ichki va tashqi omillar ta'sir etishi mumkin. Xuddi shunday oilaga shirani ko'p miqdorda olib kelish asosiy asal yig'ini davrida oiladagi asalarilar soniga bog'liqdir. Uning sifatiga (bir marotaba olib kelingan shira miqdori) oilaning holatiga – ya'ni oiladagi uchta avlod vakili (shira qabul qiluvchi, qidiruvchi va shira yig'uvchi asalarilar) ish faoliyatiga oilada asalni qayta ishlab, ularni romlarga joylashtirish uchun bo'sh romlar soniga bog'liq bo'ladi.

Asalari selektsiyasini osonlashtiruvchi omillar.

Ishchi asalarini yetishib chiqishi–21 kunni, ona asalari–16–17 kunni va erkak asalari esa–24 kun ichida sodir bo'ladi. Bahor–yoz oylarida oiladagi avlodni to'liq almashinishi 35– 45 kun davom etadi. Asalari oilasida ona asalarini almashtirgandan so'ng oiladagi birinchi avlod ikkinchisiga to'liq almashinadi.

Yuqori sifatli maxsuldor ona asalarilardan bahor va yoz mavsumida ko'plab ona asalari qizchalari yetishtiriladi va shu bilan asalarichilikda keng miqyosda selektsiya ishlarini bajarishga imkoniyatlar yaratiladi.

Asalarichilikda selektsiya ishlarida xalaqit beradigan, sifatsiz asalari oilalarini yaroqsizga chiqarib bo'ladi. Buning uchun zudlik bilan shu oiladagi ona asalarini sifatli zotdor onaga almashtirish kifoyadir. Shuning uchun asalari oilasidagi avlodni sinash uchun tadqiqotlar olib borish davri boshqa hayvonlarga nisbatan ancha qisqadir.

Asalarichilikda hatto asalari oilasini boshqa asalarizordan keraklicha himoya qilinganda ham ularga tanlash faqatgina ona avloddan olib boriladi. Bunday tanlashni ota avloddan ham olib borish mumkin, lekin u faqatgina 1–2 yildan keyin o'zining samarali natijasini beradi.

Asalari sifatini eksteryer belgilari bilan aniqlash.

Asalarichilikda asalari sifatini, uning zotini aniqlash ishlarida asalari tanasidagi ba'zi bir xitin tanalarini o'lchashni birinchi bor G. Kojevnikov va V. Alpatovlar kashv qilganlar. Buning uchun asalari tanasidagi uning xartumchasi, tergit, sternitlar, mum oynachalari, qanot va boshqalarni, shuningdek oila maxsuldorligi kabi ko'rsatgichlar hisobga olingan.



Hozirgi kunda asalari selektsiyasini o'rganishda asosan uning eksteryer (tashqi belgilar) ko'rsatgichlari ya'ni, xartum uzunligi, qanot hajmi, uchinchi terzit kengligi va mum oynachalari hisobga olinadi.

Asalarilarni eksteryer belgilarini aniqlash uchun asalari oilasidan endigina chiqqan yosh asalarilardan 50–60 dona olinib, ular mahsus doka xaltachalarga solinadi. Xartumchalarini to'liq chiqarishi uchun ularni qaynoq suvga botirib olinadi. So'ngra ularni uzoq muddat saqlash maqsadida 70 % li etil spirtiga solinadi va idish og'zi mustaxkam berkitib qo'yiladi.

Asalari tanasidan olingan namunalari binokulyar mikroskoplar (MBS-1, MBS - 2, MBS-9) yordamida o'rganib chiqiladi. Qanotlari 10 marotaba va boshqa a'zolari esa 20 marotaba qatalashtirib o'rganiladi.

1). Xartum uzunligi._Asalari xartumi uning boshidan ajratib olingandan so'ng uni glitserin yordamida shisha oynachaga yopishtirib, uning uzunligi o'lchanadi. Lekin asalari hartumchalari davr o'zgarishi bilan o'zgarib turadi, uning eng uzun davri asosiy asal yig'ini dariga to'g'ri keladi.

2). Asalari qanoti._Odatda asalarining o'ng tomondagi oldingi qanotlarining uzunligi va kengligi o'lchanadi. Qanot hajmi asalarilarning qancha miqdorda gul shirasi olib kelishiga dalolat beradi.

3). Mum oynachalari._Buning uchun asalari qornidagi uchinchi sternitdagi yarim halqalaridagi mum oynachalari olinadi va uning uzunligi, kengligi o'lchanadi. Mum oynachalarining hajmi uning qanchalik miqdorda mum ajratish qobiliyati borligini bildiradi.

4). Uchinchi tergit xajmi asalari qornidagi uchinchi tergit yarim halqachasining ikkita o'simtasi o'rtasidagi masofa o'lchanadi, hamda tergit o'rtasidagi kenglik masofa o'lchanadi. Bundan tashqari, asalari selektsiyasini va zotini o'rganish davrida aslari qanotlaridagi ilgaklar soni va kubital indeksi, orqa oyoqlaridagi birinchi bo'g'inlarning uzunligi va kengligi, hamda asalarining tana hajmi kabi ko'rsatgichlar ham hisobga olinadi.

Turli hil turdagi asalari oilasining foydali xo'jalik belgilarini hisobga olish.

1). Yalpi asal hosili asalari oilasining yil daomidagi mahsuldorligini belgilaydigan asosiy ko'rsatgichdir. Yangi zot mahsuldorligini o'rganishda, shuningdek oiladagi 1 kg asalarilarning asal yig'ishi ham hisobga olinadi. Bu ko'rsatgich asalari oilasining asosiy asal yig'ini darida qancha miqdorda asal yig'gani va uni qayta ishlaganligidan dalolat beradi.

2). Oila kuchi._Asalari oilasining mahsuldorligi oilaning asosiy asal yig'ish davrida yetishtirgan asalari soniga bog'liq. Shuning uchun ham asalari oilasining kuchi oilaning asosiy foydali xo'jalik ko'rsatgichlaridan biridir.



3). Ona asalari mahsuldorligi. Ona asalarining serpushtlik mahsuldorligi har 12 kunda oiladagi yopiq naslni maxsus o'Ichagich romlar bilan aniqlab, uning asosiy asal yig'imida bo'lgan davrda mahsuldorligi aniqlab olinadi.

4). Mum mahsuldorligi. Asalari oilasiing mum mahsuldorligi oilada to'qilgan yangi mumpardali romlar soni bilan ifodalanadi. Ma'lumki ana shunday romlarga asalarilar qo'shimcha ravishda yana 70 gr mum ishlab chiqarib, uni to'qib tashlaydi. Bundan tashqari, asalari oilasidan kunlik yig'ishtirib olinadigan mum qirindilari, hamda har bir asal tortish davrida romlardan olinadigan mum qopqoqchalari ham hisobga olinadi.

5). Asalarining uchish faoliyati. Asalarilarning uchish faoliyati, odatda ertalab yoki kechki vaqtga borib uning uchish tezligi o'lchanadi. Buning uchun 3-5 minut ichida oilaga kirib chiqadigan asalarilar 3 marotaba hisoblab chiqiladi va yakunlanadi. Kunduzgi vaqtlarda esa bu ishlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

6). Asalarilarning yuk ko'tarish darajasi. Asalari uyasiga kiradigan va chiqadigan xar bir asalarini (gulchangsiz) ulchab olinadi. Shu tariqa ishning qizg'in pallasida maxsus asbob bilan uyaga yuk bilan kiradigan tirik asalari vazni (5-10 ta) o'lchab olinadi, xuddi shunday uyadan chiqib ketadigan asalarilar vazni ham o'lchab olinib, uning o'rtasidagi farq aniqlab olinadi. Aniqlangan farq asalarilarning yuk ko'tarish darajasi sifatida belgilanadi, har bir asalari uchun mg hisobida bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari: Zot-avloddan-avlodga o'ziga xos eksteyerr ko'rsatgichlari va mahsuldorlik belgilari bilan ta'riflanadi, kelib chiqishi bir bo'lgan uy hayvonlari guruhidir. Yangitdan yaratilayotgan zot barcha tabiiy ko'rsatgichlar talabiga javob berishi kerak. Ammo hozirgacha birorta asalari zoti yaratilmagan. Asalarichilikda ishlatiladigan hozirgi asalari zotlari ming yillardan beri tabiiy sharoitga moslashib, rivojlanib kelgan zotlardir.

Asalari zotlari ham ikki xilga bo'linadi, ya'ni aborigen zotlari mahalliy iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan o'ziga xos xislatlarga ega bo'lgan biror o'lka yoki mamlakatning mahalliy asalari zotlaridir. Bu jarayonda inson ishtirokisiz tabiiy tanlash asosida vujudga keladi.

Zavod zotlari yoki madaniy zotlar_insonlarni ko'p yillik mashaqqatli mexnati mahsuli bo'lib, madaniy zotlar o'zining ko'p mahsuldorligi bilan boshqa aborigen zotlardan keskin farq qiladi.

Asalarining qishlovga chidamliligi. Asal yig'ish mavsumi tugashi bilan har bir asalari oilasiga kuzgi taftish o'tkaziladi, buning uchun oila kuchi, ozuqa miqdori hisobga olinadi. Bahorda esa bahorgi taftish o'tkazilib oilada qolgan ozuqa miqdori, yetishtirilgan nasl miqdori, oila kuchi, uyaning holati, qishlov davridagi ozuqa sarfi, o'lgan asalarilar soni, uyaning bo'lganganlik darajasi va nazematoz kasaliga hamda qishlovga chidamliligi kabi ko'rsatgichlar hisobga olinadi.



Asalari o'limi oiladagi qishlovdan oldingi asalari romlaridagi va qishlovdan so'ng, ulardagi asalari bilan xisobga olinib foizlar bilan belgilanadi.

Xulosa: O'zbekistonda iqlimlashtirilgan asalarilar zotlari va ularning zootexnikaviy tasniflash.

Asalarichilikda seleksiya ishlarining muvaffaqiyatli o'tishi bu ishning dastlabki materiallariga bog'liq bo'ladi. Asalarilarning xo'jalik foydali xususiyatlarini yaxshilash uchun doimiy ravishda zot bilan ishlash zarur bo'ladi.

Oldindan u yoki bu xududlarda yashovchi asalarilar shu yerning iqlim sharoitiga moslashgan bo'ladi. Bir zot boshqa zotdan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, bu ularni bir ma'lum zot guruhlariga va populyatsiyalarga ajratish imkonini beradi. Shuning uchun asalarichilikda xar xil zotlarni biologik va foydali xo'jalik xususiyatlarini, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur bilishini davr talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi PQ-3327-sonli qarori.

2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. "Pchelovodstvo", 2015, №4, str. 24-26.

3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 666-671.

4. R.Jamolov., O.To'rayev, D.Xatamova. "Asalarichilik asoslari", Farg'ona "Classik", 2022.

5. Jamolov R., Boboyev B., O'ktamjonov S. Farg'ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati Science and innovation.-2022.-T. 1.-№. d7.-c. 43-49.

6. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M.,Xolmatova, M. A. (2022). Asalarichilik va uning ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 644-649.

7. R.Q.Jamolov, O.T.Avazxonova, M.D. Mirzobiddinova, A.N. Ergasheva. [Asalarizorda asal tortish texnologiyasi](#). Science and innovation 2 (Special Issue 6), 964-967 b.

8. R.Jamolov. [O'zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irqi tarkibi](#). (Science and innovation 2 (Special Issue 8), 630-634 b)